



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



TALABALARGA TILLARNI O‘QITISHDA VEB-KVESTNI BOSQICHMA-BOSQICH YARATISH.

Jo‘rayeva Gulmira

FarDU chet tillari kafedrasini o‘qituvchisi

Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “sen buni o‘qishing va bilishing kerak” deya ko‘p takrorlanuvchi da’vatlardan ko‘ra, “Menga bu zarur va men buni albatta o‘rganishim, hayotim davomida undan foydalanishim kerak” degan fikr samaradorligi sezilarli darajada yuqori. Buning effektivlik darajasi esa ularda o‘qish va mehnatga layoqatliligin oshganligida, individual rivojlanish darajasi tez sur’atda o‘sganligida, o‘qishni bitirgach ish bilan ta’minlanishda muammolarga duch kelmasligida, intellektual raqobatning kuchayganligida, g‘oyalarning xilma-xil va rang-barangligida namoyon bo‘lmoqda.

Jahonda global axborot tarmog‘ining imkoniyatlarini ta’lim tizimi bilan integratsiyalash, uning imkoniyatlaridan ta’lim sifati va samaradorligiga erishishda foydalanish, sifatli va haqqoniyligini bilim olish texnologiyasini ishlab chiqishga doir tadqiqotlarga imkoniyatlar yaratilmoqda. “So‘nggi yillarda chet tillarini o‘rganayotgan talabalar nafaqat internetning ulkanresurs bazasidan foydalanish, balki ularning ijodiy salohiyatini ochib berishimkoniyatini beruvchi AKT veb-kvestlaridan foydalanish bilan bog‘liq axborot va tadqiqot vazifalariga juda qiziqib qolishdi”[112;483]. Veb-kvest “talabalar internetda ma'lumotlarni belgilangan manzillarda izlashlari uchun mustaqil tadqiqot faoliyatining maxsus tashkil etilgan turi” deb ataladi[150]. Faoliyatning bu turi talabalarning mustaqil ishlashi uchun vaqtadan oqilona foydalanish, “ta’lim jarayonida zarur xilma-xil axborot va undan qanday foydalanishni tez topa olish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotlarni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni ta’minlaydi. Bilim, ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash va nazorat qilishning bu usuli ta’lim muhitining zamonaviy talablari va xususiyatlariga javob beradi”[112;482]. Shuning uchun ham mazkur texnologiyani ommalashtirish, global axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan sifatli ta’lim olishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Veb-kvestning quyidagi asosiy bosqichlarini ko‘rib chiqamiz.

1. “Qisqacha kirish tahriri: ishtirokchilarining asosiy rollari tavsifi, veb-kvest stsenariysi, ish rejasи va muddatları.
2. Vazifani ishlab chiqish.
3. Axborot resurs bankini yuritish uchun zarur bo‘lgan axborot resurslari bilan ta’minlash vazifalari: kutubxonada yoki o‘qituvchida mavjud bo‘lgan veb-sahifalarga, tematik chatlarga, kitoblarga yoki boshqa materiallarga havolalar.
4. O‘z ichiga olgan vazifa bosqichlarining bosqichma-bosqich tavsifi:
 - a) tavsiya etilgan materialni talabalar tomonidan mustaqil o‘rganish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



b) veb-kvest mazmuni yoki uning taqdimoti bilan bevosita bog‘liq masalalar bo‘yicha o‘qituvchi bilan maslahatlashish;

v) topshiriqning talabalar tomonidan bajarilishi;

d) har bir jamoa a’zosining ish natijalarini talabalar o‘rtasida muhokama qilish va tanlash, hamda yakuniy taqdimot uchun muhim bo‘lgan materialni tayyorlash;

e) o‘qituvchining elektron resurslardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalari;

f) o‘qituvchining yakuniy taqdimot uchun tavsiyalari;

6. Veb-kvest bilan ishlashda talabalar orttirgan tajribani umumlashtirish, xulosa qilish, yakuniy taqdimotni tayyorlash, talabalar ilmiy ishlarini nashr etish, davra suhbatlarini tashkil etish”[41;264].

Veb-kvestlarning keng tarqalgan shakllari quyidagilardan iborat:

- talabalar tomonidan ilgari surilgan savol va javoblar orqali mashhur shaxslar bilan intervyular.

- talabalar giperhavolalar yordamida ishlashlari uchun ma'lum bir mavzu bo‘yicha ma'lumotlar bazasi, yoki “virtual dunyo” yaratish. ”Veb-kvestlar o‘z shartlariga ko‘ra qisqa muddatli va uzoq muddatli vazifalarga bo‘linadi. Qisqa muddatli loyihalarning maqsadi - bilim olish va uni sizning bilim tizimingizga kiritishdir. Veb-kvestning turi bo‘yicha ish bir sessiyadan uch sessiyagacha bo‘ladi. Uzoq muddatli loyihalar tushunchalarni kengaytirish va ularni izohlashga qaratilgan. Bunday veb-kvest ishlari yakunida talaba olingen ma'lumotlarni tahlil qilib, uni o‘zgartira olishi kerak”[112;484]. Uzoq muddatli veb-kvest ustida ishslash bir haftadan bir oygacha davom etishi mumkin.

Shuningdek, “veb-kvestlarni veb-saytga joylashtirish va ma'lum bir topshiriqni bajarishda talaba o‘zi harakat qiladigan rolni tanlash, talabalarning yanada sifatliroq o‘quv natijalariga erishish motivatsiyasini oshirishga imkon beradi. Veb-kvestni rejalashtirishda muhim jihat talabalar tomonidan bajarilgan topshiriq - natijalarini baholashdir. Chet tilini o‘rgatishda asosiy vazifa nafaqat til bilimlarini baholash, balki muloqot ko‘nikmalarini ham hisobga olish imkonini beruvchi bir qator mezonlar mavjud”[112;484]. Shubhasiz, ta’lim jarayonida veb-kvestlardan foydalanishning asosiy afzalligi talabalarni mustaqil tahliliy va ijodiy fikrlashga undash, ularni o‘z natijalari va hamkasblarining natijalarini xolisona baholashga jalb qilishdir. ”Veb-kvestlar nafaqat bilimlarni o‘rganish va nazorat qilishning innovatsion usuli, balki talabalar tomonidan bu bilimlarni olishning mutlaqo yangi usuli hamdir. Shu bilan birga o‘qituvchi veb-kvestda qo‘yilgan savollarga javob izlashning mustaqil ijodiy jarayonini yo‘naltirishda yordamchi vazifasini bajaradi. Albatta, veb-kvestni yaratish vaqt va o‘qituvchining yuqori professionalligini talab qiladi, lekin ma'lum bir mavzu bo‘yicha bir qator vazifalarni ishlab chiqib, o‘qituvchi keyingi yillarda ulardan foydalana oladi, bu nafaqat vaqtini tejaydi, balki o‘quv va nazorat jarayonini qiziqarli va zamonaviy qiladi”[112;484]. Bundan tashqari, veb-kvestlar XXI asrda inson uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘sadi va mustaqil va ijodiy fikrlash va katta xajmdagi axborot oqimini boshqarish qobiliyatiga xolisona yondashadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жўраева, Г. З. (2022). Бўлажакхори жийтилўқитувчиларининг WEB-КВЕСТТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА АХБОРОТЛАРГА ТАҲЛИЛИЙ ВАТАНҚИДИЙ МУНОСАБАТИНИШАКЛАНТИРИШТИЗИМИ. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 235-238.

2. Zufarjonovna, J. G. (2022). BENEFITS OF USING WEB-QUEST TECHNOLOGY IN ENGLISH LESSONS AS FOREIGN LANGUAGE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 158-160.*

3. Azimbayevna, D. G., & Vohidovna, X. X. (2021). FEATURES IN THE TRANSLATION OF MEDICAL TERMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 470-474.

4. Zufarjonovna, J. G. (2022). USING WEB-QUEST TECHNOLOGY IN ENGLISH LESSONS AS FOREIGN LANGUAGE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 161-164.*

5. Багасина, Е.И. Хорижий тилни талабаларга ўқитишида веб-топшириқларни ишлаб чиқишиятологияси// Е.И. Багасина. Билим. Тушуниш. Маҳорат. 2010. № 2. –Б. 264.

6. Ҳамдамов У.Э. Бўлажак инглиз тили ўқитувчиларини веб-квест воситасида мустақил таълимни ташкил қилишга ўргатиш технологияси. ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР журнали. №SI-2 | 2020. –Б. 482

7. Егорова, В.М. Талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этиш-шакллантириш технологиялари. [Электрон ресурс]

УРЛ:www.rusnauka.com/22_NIOBG_2007/Pedagogica/24945.doc.htm.

